O’ZBEKISTON RESPUBLIKASI

OLIY VA O’RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI

TOSHKENT TO’QIMACHILIK VA YENGIL SANOAT INSTITUTI

UDK: 746.345:687.01 Qo’lyozma huquqida

YUSUPOVA SHAHNOZA QAMARIDDIN QIZI

# QUROQ TEXNIKASINI TIZIMLASHTIRISH VA LIBOSLARNI LOYIHALASHDA QO’LLASH

5A150901-Dizayn (Kostyum dizayni)

Magistrlik

Akademik darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya

Ilmiy rahbar:

F.f.n.,dotsent Rahmatullaeva.U.S

Ilmiy maslahatchi:

Dotsent. Yunusxadjaeva.X.M

Toshkent-2016

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI

OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

TOSHKENT TO'QIMACHILIK VA YENGIL SANOAT INSTITUTI

Fakultet_Yengil sanoat texnologiyasi

Kafedra_Kostyum dizayni

O'quv yili_2014-2016

Magistratura talabasi_Yusupova.Sh.Q

Ilmiy rahbar_Rahmatullaeva.U.S

Mutaxassisligi_5A150901

## Quroq texnikasini tizimlashtirish va liboslarni loyihalashda qo'llash

MAGISTRLIK DISSERTATSIYASI ANNOTATSIYASI

**-Mavzuning dolzarbligi:**Quroq texnikasidan foydalanib, yangi libos turlarini loyihalash bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biridir;

**- Ishning maqsadi va vazifalari**: Quroq texnikasini tizimlashtirish va uni tasviriy san'at asarlari bilan uyg'unlashtirish;

**-Tadqiqot ob'ekti va predmeti:**Tadqiqot ob'ekti tasviriy san'at na'munalarini o'rganish, tahlil qilish va quroq texnikasi bilan bog'lash;

**-Tadqiqot natijalarining ilmiy jixatdan yangilik darajasi:**Quroq texnikasi tizimlashtirildi, tasviriy san'at asarlari asosida yangi libos na'munalari yaratildi;

**-Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati va tatbiqi:**quroq texnikasi elementlarini qo'llab ayollar ustki liboslari to'plamini yaratish va ommaga tadbiq etish amaliy ahamiyatga ega;

**- Ish tuzilishi va tarkibi:** Dissertatsiya kirish, 3 bob,16 ta paragraf,65 ta rasm,38ta jadval, xulosa, ilova va adabiyotlar ro'yxatidan iborat. Dissertatsiya hajmi 102 bet;

**-Bajarilgan ishning asosiy natijalari:** Magistrlik dessertatsiyaning bajarilishi quroq texnikasining tadqiq etilishi bilan bog'liq bo'lib, unda quroq texnikasining kelib chiqishi va turlari o'rganildi.

**-Xulosa va takliflarning qisqacha umumlashtirilgan ifodasi:** quroq texnikasini tasviriy san'at asarlari bilan uyg'unlashtirish asosida ayollar liboslari yaratildi.

Ilmiy rahbar: F.f.n.,dotsent Rahmatullaeva.U.S ____________

Magistratura talabasi: Sh.Q.Yusupova ____________

# MINISTRY OF HIGHER AND SECONDARY SPECIAL EDUCATION OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

# TASHKENT INSTITUTE OF TEXTILE AND LIGHT INDUSTRY

Faculty: “Technology of light industryDepartment:”Costume design” Student of master course: Yusupova.Sh.Q Scientific researcher: Rahmatullaeva.U.S Study year: 2014-2016 Specialty: 5A150901

## Sytematization ofthe quilt techniques and used the design of clothes

## ANNOTATION OF MASTER’S DISSERTATION

**-Actuality of the theme:** Quilttechnology, a new type of dress is one of the most urgent tasks of the present project;

**-Aim and tasks of the research:** Quilt and equipment, systematization and harmonization with the works of fine art;

**-Object and subject of the research**: The object of the study fine arts achievements of study and analysis to link arms and equipment;

**-Novelty of the work**: Quiltsystematization, fine art on the basis of a new clothing samples;

**-Significance of the research**: Quilt technology to create a collection of items on the top of the women's dresses and the implementation of practical importance to the public;

**-Structure of the work**: Introduction, Chapter 3, 16 paragraph, 65 pictur’s,38 table’s, conclusion with the application and a list of publications. Page of the dissertation are 102;

-**Results of the work:** Aim of the Master dissertation is quilt technique with regard to the origin of the quilt technique and types were learned;

**- Conclusions and Recommendations summarized in a brief statement:** Quilt and equipment, fine art created on the basis of harmonization with women.

Scientific researcher: c.p.sc.Ass. Prof.Rahmatullaeva.U.S __________

Student of master course: Sh.Q.Yusupova ________________

## MUNDARIJA

**Kirish**

**I-bob.Adabiyotlar  sharxi**

1.1Quroq texnikasi tarixini o'rganishva tahlil qilish…………………………..8

1.2Quroq texnikasining  turlarini o'rganish va tahlil qilish………………..…19

1.3Quroq texnikasidan kompozitsiyani yaratishda foydalaniladigan uskunalar, ranglar va matolar tahlili…………………………………………………….…30

**I-bob bo'yicha xulosa**

**II-bob. Tajriba - sinov  qismi**

2.1Quroq  texnikasini tizimlashtirish ……………………………………....34

2.2Quroq texnikasini tasviriy san'at asarlari bilan uyg'unlashtirish va uslub-lash…………………………………………………………………………….50

2.3Zamonaviy moda tendensiyalarida -quroq texnikasining o'rnini tahlil qilish………………………………………………………………………….54

2.4Quroq texnikasidan foydalanib ayyollar liboslarini loyihalash……………60

2.5 Quroq texnikasining tikilish ketma-ketligi…………………………..…62

**II-bob bo'yicha xulosa**

**III–bob. Loyiha qisimi**

3.1Kolleksiya konsepsiyasini ishlab chiqish…………………………….…66

3.2Ayollar ustki kiyimlari (plash)haqida ma'lumotlar ………………………..66

3.3Konstruktiya usulini tanlash va asoslash…………………………………...82

3.4AK, BK xisoblash va qurish uchun dastlabki ma'lumotlar va MKni qurish.83

3.5Yangi modelni texnologiyasi va taklif-model andozasini ishlab chiqish…..86

3.6 Taklif modelni razmerlararo va bo'ylararo orttirish...................................90

3.7 Materialarni sarf meyorini xisoblash........................................................92

3.8 Liboslar to'plamini reklamasini ishlab chiqish(BREND-NAME tanlash)..95

**Xulosa**

**Adabiyotlar  ro'yxati**

**Ilova**

# Kirish

**Dissertatsiyamavzusiningasoslanishivauningdolzarbligi:**Bizgama'lumki, jamiyatimizdayuzberayotganyangilanishlar, sa'natsoxasidajadalborayotganrivojlanishlar, milliymadaniyatimizrivojigakengyo'lvaimkoniyatochibbermoqda. O'zbekistonRespublikasiPrezidentiI.A.Karimovta'biribilanaytganda : " Bugungikundaxalqarohamjamiyatsafidamunosibvamustahkamo'rinegallabborayotganO'zbekistonimizning, uningtarixanqisqadavrdaqo'lgakiritganulkanmarralariga, el-yurtimizningma'naviyildilzlar, urf-odatlarvaan'anaviy, birso'zbilanaytganda, o'zbekxarakteri, o'zbektabiatigabutundunyodaqiziqishvahurmattoboraortibbormoqda"[1].Yurtboshimiztomonidanta'kidlabo'tilganushbuso'zlaralbattadizaynsohasigahamtegishlidir.

Tadqiqotmavzusiningdolzarbligiquyidagiomillarbilanizohlanadi:

Birinchidan, azaldanma'lumvamashhurbo'lganhunarmandchilikningo'zigaxosturlaridanbiribo'lganquroqtexnikasiningtarixini,qo'llanilishsohalarini, o'zigaxoshususiyatlarinivazamonaviymodaolamidagiahamiyatinio'rganishvatahlilqilishlozim;

Ikkinchidan, bugungikundadizaynolamidaushbutexnikaniqo'llayotgandizayneruchunushbutexnikahaqidaaniqma'lumotlarzarurdir;

Uchinchidan,esaquroqtexnikasiningbarchaturlario'rganilibularnitizimlashtirishdizaynyo'nalishiuchunyangilikbo'lishianiq.Natijada har bir dizayner ushbu tehnikaning turlari va bajarilish yo'llari haqida aniq ma'lumotga ega bo'ladilar;

To'rtinchidan,quroqtexnikasiniyanabiryangituriniyangiusuliniyaratishmaqsadidaunitasviriysan'atasarlaribilanuyg'unlashtirishdaniborat.

**Tadqiqot maqsadi:**Quroq texnikasini tizimlashtirib, yana bir yangi usulini yaratib, ayollar liboslarida qo'llashdan iborat.

**Tadqiqot ob'ekti va predmetining belgilanishi:**Tadqiqot ob'ekti tarixiy va zamonaviy quroq texnikasining na'munalari, tasviriy san'at asarlaridan na'munalar, rasmlar, yozma manbalarni o'rganish asosida keltirilgan ma'lumotlardan olingan. Tadqiqot predmeti esa o'rganilgan ma'lumotlarni tizimlashtirish va quroq texnikasini tasviriy san'at asarlari bilan bog'lash.

**Tadqiqot vazifasi:**

-quroq texnikasining kelib chiqish tarixini o'rganish;

- quroq texnikasining turlarini o'rganish va tahlil qilish;
- quroq texnikasining turlarini tizimlashtirish;
- matolarni fizik-mexanik xususiyatlarini tadqiq etish;
- zamonaviy moda tendensiyalarida quroq tehnikasining o'rnini va ahamiyatini tahlil qilish;
- quroq texnikasini tasviriy san'at asarlari bilan uyg'unlashtirish va uslublash;

-quroq texnikasidan foydalanib ayollar liboslarini loyihalash.

**Tadqiqot asosiy masalalari va farazlari:**quroq texnikasining bugungi kungacha yaratilib kelingan turlarini mavjud adabiyotlardan o'rganib, to'laroq tasavvurga ega bo'lish. Hamda ularning barcha turlarini sxematik ravishda tizimlashtirish va bunda quroq texnikasini o'rganish va ishlash uchun qulaylikni yaratish maqsadga muvofiq.

**Tadqiqot qo'llanilgan uslublarning qisqacha tavsifi:** Tarixiylik, qiyosiy taxlil, analiz va sintez va umumlashtirish, tajriba-sinov, uslublash, konstruktiv-texnologik va boshqalar.

**Tadqiqot natijalarining nazariy va amaliy ahamiyati:** Mavzu atroflichao'rganilib, xulosa chiqarildi. Mavzuning dolzarbligiva quroq texnikasini tizimlashtirish va uni liboslarda qo'llash asosiy vazifalardan biri ekanligi asoslandi.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi:**Quroq texnikasining turlari tizimlashtirilgan, uni yangi usuli tadbiq qilingan va ayollar ustki liboslarida qo'llanilgan.

**Natijalarning e'lon qilinganligi:** Tadqiqot natijalari 2 ta magstrlar ilmiy maqolalari to'plamida, 1 ta respublika ilmiy-amaliy konferentsiya materiallarida,

“Toshkent moda haftaligi”ning “#Beyong” yosh dizaynerlar tanlovida liboslar to’plami namoyish etilgan.

**Dissertatsiya tarkibining qisqacha tavsifi:**Dissertatsiya kirish, 3 bob,16 ta paragraf,65 ta rasm, 38ta jadval, xulosa, ilova va adabiyotlar ro’yxatidan iborat. Dissertatsiya hajmi 102 bet.

# I-Bob.Adabiyotlarsharxi

## 1.1 Quroqtexnikasitarixinio'rganish

Quroq mayda yoki qiyqim mato bo'laklarini bir-biriga ulab ro'zg'or uchun kerak bo'ladigan buyumlar, bezaklar yaratish texnikasi bo'lib, qadimdan jahondagi turli xalqlar orasida keng tarqalgan.Yevropada ushbu texnika ''Пэчворк''(ingliz tilida "patchwork" - mato bo'laklaridan yaratilgan buyum) nomi ostida mashhur. Amerikada bu texnikani ''Quilting''( ingliz tilida "quilt" – qavilgan ko'rpa) deb atashadi. Yillar davomida hunarmandchilikning bu turi san'at darajasiga ko'tarildi. Bugungi kunda quroq texnikasini intery'erda, uy ro'zg'or buyumlarida, liboslarda, turli san'at asarlarida ham ko'rishimiz mumkin. Masalan, quroq texnikasida yaratilgan divanlar qoplamlari, pardalar, dasturhonlar, gilamlar, kravat choyshablari, tasviriy san'at asarlari intery'er uchun dekor sifatida qo'llanilmoqda [2](I-bob.1-2-3-rasm). Ma'lum bo'lishicha, quroq texnikasida hech qanday qiyinchilik yo'q, har qanday hunarmandchilik turi ham odamdan iste'dod, sabr va orastalikni talab qiladi. Quroq texnikasida buyumlar yaratishda har qanday mato turlaridan foydalanish mumkin, albatta bu ijodkorning ilhomlanish manbaiga bo'g'liqdir. Quroq texnikasini bajarish mobaynida har hil turdagi va ranglardagi mato bo'laklari birlashtirilishi natijasida yaxlit, umuman boshqa bir murakkab ko'rinishdagi rasm hosil bo'lgan bir buyum paydo bo'ladi[38].



**I-bob.1-rasm. Quroq texnikasida tikilgan stol uchun salfetkalar.**



**I-bob.2-rasm .Choyshab. Quroq texnikasi tikilgan joylaridan titib chiqilib ajoyib faktura hosil qilingan.**



**I-bob.3-rasm. Quroq texnikasidan foydalanilgan sumkalar.**

Qadimdan dunyodagi juda ko'p xalqlarda mayda qiyqim matolardan yaxlit mato yaratib kelingan. Ma'lumotlarga qaraganda, eramizdan avvalgi 980-yilda yaratilgan misr ornamentlarini o'zida aks ettirgan, charm bo'laklaridan tikilgan buyum topilgan. Tokiyo shahridagi muzeylardan birida esa taxminan shu yillarda yaratilgan qiyqimlardan tashkil topgan libos eksponat sifatida namoish etilmoqda. 1920-yilda arxeolog Artur Shteynom tomonidan Buyuk Ipak yo'lidagi Yuzming Budda g'oridan IX-asrda yaratilgan gilam topilgan bo'lib, u ziyoratchilar kiyimining bo'laklaridan yaratilgan.Xar hil mato bo'laklaridan fragmentlar tikish texnikasi qadimgi Rimdan ma'lum. O'sha davrda bu o'lkada yostiqlar, matraslar va ko'rpalar tikishda ushbu texnikadan foydalanishgan.Tarixiy ma'lumotlarga ko'ra quroq tikish texnikasi XI asrdayoq Yevropada keng tarqalgan. O'sha vaqtlarda jangchilar liboslarining aksariyatlari qavilgan quroq texnikasida bo'lgan.Bu ularni jang vaqtida sovuqdan yaxshi himoya qilgan [3].Yaqin vaqtlargacha mato bo'laklaridan buyum tikish texnikasi Anglyada paydo bo'lgan deb hisoblanardi, keyinchalik hunarmandlar qo'l ishining bu turini Amerikaga olib ketdilar. U yerda esa bu texnika juda rivojlandi va milliy san'at maqomiga ega bo'ldi. Lekin ushbu texnikani mato bilan ish yurituvchi hamma yerda tarqalgan deyish ham mumkin. Mato bo'laklari, bichimlardan qolgan qoldiqlarga nisbatan bo'lgan muhtojlik, ehtiyotkorlik va tejamkorlik hissi mato bo'laklaridan buyum tikish texnikasining yaralishiga turtki bo'ldi.[39]

## Angliyadaquroq texnikasining kelib chiqish tarixi

XVI asrda Angliyaga hind paxtasidan yaratilgan har xil naqshli, bo'yalgan matolar kirib kela boshladi. Angliyaliklar intery'erda kashtali va bo'yalgan choyshablarni zamonaviy bezak sifatida qo'llashdi. 1712-yilda Angliyada Hindistondan keltirilgan matolar sotuvi taqiqlanishi tufayli satin matosi yetishmovchiligi yuzaga keldi va buning natijasida mato qoldiqlaridan yaxlit buyum tikish an'anasi yuzaga keldi. Shu yo'l bilan hukumat mamlakatdagi jun va shoyi matolarini ishlab chiqarish fabrikalarini saqlab qolishni niyat qilganlar. Satin matosi Angliyaga faqat noqonuniy yo'llar orqali kirib kelgan va uning narxi keskin oshib ketgan. Satin matosidan bichilgan liboslarni bichimlaridan qolgan qiyqimlarni tashlab yubormay ulardan boshqa buyumlar yaratishga harakat qilishgan[4].

## Shimoliy Amerikadaquroq texnikasining kelib chiqish tarixi

Amerikada qavilgan buyum ko'chmanchilar bilan birga XVII asrning 20-yillarida kirib kelgan.Matolar tanqisligi tufayli qavilgan ko'rpalarni eski kiyimlar bo'laklari yordamida yamashgan. Keyinchalik mato tanqisligi mato qoldiqlaridan qavilgan buyumlar tayyorlash an'anasini yuzaga keltirdi va bu an'ana ''Kvilt'' deb nomlandi. Kvilt so'zi ingliz tilida ''quilt'' qavima ko'rpa degan ma'noni anglatadi. Yillar mobaynida bu texnika rivojlanib bordi, har bir kvilt ustasi o'ziga xos naqshga va ranglar kombinatsiyasiga ega bo'lgan buyumlarni yaratishga harakat qilishdi. Asosan, amerikalik uy bekalari kviltning ustki qismini qishda tikishgan.Kviltni qavish uchun esa bahorda barcha qo'shni uy bekalari yeg'ilishgan, kechga tomon ishtan qaytgan erkaklar ham ularga qo'shilishgan.1750-yilgacha yaratilgan Amerika kviltlarining barchasi quroq texnikasidagi naqsh yo'nal'shlari shakllanib bordi.Ularni ko'pchiligining nomlanishi har kungi real hayot bilan bog'liq edi. Masalan, ''arra tishi'', ''uskunalar uchun savat'', hududlarda ''Ogayo va Texasa yulduzi'' degan nomlar ma'lum edi. Keyinchalik, ya'ni 1859-yillarda applikatsiya mashhur bo'ldi.Quroq texnikasida yaratilgan ko'rpalar kundalik hayotda ishlatiladigan buyumlar

bo’lganligi sababli, ular juda kam saqlanib qolgan edi, appllikatsiyali kviltlar esa maxsus tadbirlarga atab tikilgan edi[5].

1876-yilda, Filadelfiyadagi ko’rgazmada yangi texnikada yaratilgan Amerika ishi namoish etildi.Uning nomi ‘’crazy’’ ingliz tilidan tarjima qilinganda betartib degan ma’noni anglatadi.Quroqning bu texninikasini ‘’atirgul’’, ‘’karusel’’, ‘’speral’’, deb ham atashadi. Bu texnika shoyi matolardan va qo’shimcha kashtalardan tikilgan. Kreyzi texnikasi bejirim matolardan ya’ni parcha, bahmal, shoyilardan kompozitsiyalar yaratish imkonini berdi. Mato bo’laklarini birlashtirishda xar hil kashtalardan foydalanishgan, buyumni esa applikatsiya va rasmlar bilan boyitishgan. 1879-yilda ‘’Peterson’’ nomli illyustratsiya jurnalda qo’l ishining ushbu turi ta’riflandi. Quroqning bu yo’nalishi Yapon va Sharq matolaridan keng foydalanilganligi sababli yapon shoyisi deb nomlandi. Buyum faqat bezak uchun mo’ljallandan edi.Chunki, mato bo’laklari juda kam choklar bilan tikilgan edi, atroflariga esa bahroma, popuk, to’r, popuklar bilan bezak berilgan edi.Shu sababli ularni yuvib bo’lmas edi [6].

Yangi texnikalar Amerika bozorlarida butun bir yo’nalishni keltirib chiqardi.Ya’ni ko’ngillilarga kvilt tikish uchun tayyor to’plamlar sotila boshlandi.To’plam o’z ichiga kvilt uchun kerakli bo’lgan mato bo’laklarini, iplarni, hosil bo’lishi kerak bo’lgan rasmlarni olardi. XXasrning 10-yillariga kelib kreyzi texnikasiga bo’lgan qiziqish kamaydi va u o’z o’rnini odatiy quroq texnikasiga bo’shatib berdi. XX asrning 70-yillarida quroq tikishga bo’lgan qiziqish qayta tug’ildi. Kvilt klublar, haridorga ushbu amaliy san’at uchun kerak bo’ladigan matolarni taklif qiladigan maxsus do’konlar, mavzuga oid kitoblar va jurnallar ommalashdi[7].

## Rossiyadaquroq texnikasining kelib chiqish tarixi

Ruslardaazaldanmatolaruydatayyorlanganligitufaylimatoganisbatanehtiyotkorlikbilanqarashgan.XVIII asrgacha mamlakatda uyda tayyorlangan matolar ishlatilgan.Ma’lumotlarga qaraganda, XVII asrda eski dindagi kishilar orasida doim kerak bo’lib turadigan, qiyqimlardan tikilgan gilamchalar

foydalanilgan.Ushbu gilamchalarning ramziy tasviri 9ta farishta edi.XIX asrning ikkinchi yarmida sotuvda cheklangan miqdorda satin matosi paydo bo'lishi bilan mato qoldiqlaridan yaxlit mato tikish keng tarqaldi.Enining uzunligi 40smni tashkil etgan, uyda tayyorlangan matolardan farqli ravishda fabrikada ishlab chiqarilgan matolar eni uzunligi 75-80smni tashkil etgan ulardan ko'p miqdorda qiyqimlar qolgan.Asr oxirida quroq texnikasi yuqori cho'qqiga erishdi, o'sha davrda ishlab chiqarishda arzon paxta matolar va tikuv mashinalari paydo bo'lgan edi. Xristianlar orasida sovuqdan saqlanish maqsadida quroq texnikasida tikilgan ko'rpalar foydalanilgan. Ularni tayyorlashda ko'pincha eski kiyimlardan foydalanishgan va ular duch kelgan tartibda noto'g'ri shakllar bilan bir-biriga ulangan. To'yga va farzand tug'ilishiga atab ko'rpa tikish an'anasi ham mavjud bo'lgan. Bu buyumlar manfaat va bezak vazifasini o'tagan [8].

Rusmilliyliboslariningto'g'ribichimlaridanqolganqoldiqlarshaklidanto'rtburchak, uchburchakvato'g'riburchakqoldiqlarqolganligisababliquroqbo'laklariningshaklihamshungabog'liqbo'lgan. XIX asr oxiri XXasr boshida quroq texnikasi milliy kiyimda naqshli kashta, to'r kabi qiyin elementlarning o'rnini almashtirdi. Quroq texnikasidagi buyumlarni ranglar yechimini yaratishda mahalliy aholi doim san'at darajasida bo'lishini afzal ko'rishgan.Quroq texnikasining hajmli texnikasida bejirim usullar yaratildi. Masalan, ''ляпачиха''- ishlov berilmagan har xil rangli yo'l-yo'l qiyqimlar, ''уголками''- mato burchak qilib asosga tikilgan, ''йо-йо''- to'rtburchak yoki dumaloq bo'laklar shar shakliga keltirilib qo'lda tikilgan va asosga zich qilib terib tikib chiqilgan. Uchburchakli gilamchalar bilan bir qatorda gazlamalarni qalin ip ko'rinishiga keltirib, soch o'ramiga o'xshatib to'qilgan gilamchalar ham ko'p tayyorlangan[9].

Rusmilliyquroqchiliktarixini – qiyqimlarniasossizqo'lyordamidayeg'ish, qiyqimlarniduchkelgantartibdabirlashtirishvaharxilo'lchamdagidetallardanfoydalanishkabita'riflarbilanizohlashimizmumkin.

XX asrning boshida quroq va kollaj rassom avangardistlar va futuristlar e'tiboriga tushdi. Revolyutsiyadan keyin davlat tomonidan quroq texnikasi bezak

hunarmandchilik san’ati ro’yxatiga kiritilmagan, keyinchalik quroq texnikasi mamlakatdagi urush va vayronalik davrini eslatuvchi qashshoqlik belgisi bo’lib qoldi. XX asrning 90-yillarida ushbu bezak hunarmandchilik san’atiga bo’lgan qiziqish yana uyg’ondi. U keng tarqalgan hobbi bo’libgina qolmay, bezak san’atining alohida janriga ega bo’lgan yo’nalishiga aylandi. Rossiyada 1997-yildan beri har ikki yilda hunarmandlarning ishlari namoish etiladigan “ЛоскутнаямозаикаРоссии” deb nomlangan festival bo’lib o’tadi[10].

### Xindistonda quroq texnikasining kelib chiqish tarixi

Xindistonning janubi-g’arbidagi Karnataka tog’larining Shimolida Siddi xalqi yashaydi.Ma’lumotlarga qaraganda bu xalqning ayollari qadimdan eski kiyimlar bo’laklaridan yahlit buyumlar yaratishgan.Ushbu texnikani ular “Kavandi” deb atashadi. Kavandi texnikasi yordamida asosan ko’rpalar va matras qoplamalari tikishadi. Qiziqarlisi shundaki, ko’p qatlamli bu buyumlar issiq saqlovchi qatlamlar ya’ni sintevatin yoki paxtasiz  qaviladi. Asos sifatida esa eski paxta tolali matoli sari olinadi, uning ustidan eski kiyim bo’laklari tikiladi va bo’laklar ustma-ust tikilganda kattadan kichikka qarab maydalashib ketadi. Eng ustki bo’laklarda toshlar tikilgan bo’laklar, kashtali bo’laklar, piston taqilmalar tikilgan bo’laklar, cho’ntak qopqoqlari kabi eski kiyimlarning dekorativ bo’laklarini ko’rish mumkin.Umuman olganda kavandi texnikasida o’ziga xos takrorlanmas jozibani ko’rish mumkin. Lekin hamma buyumlarda rang-baranglik va qavish texnikasi mavjud. Qaviqlar yo’nalishlari barcha buyumlarda bir xil yani to’g’ri yo’nalishda, bazan esa hind qavish texnikasi bo’lgan “Kantxa” aks sado ko’rinishidagi qavish texnikasini ham uchratishimiz mumkin. Qaviqlar yo’nalishlari juda mayda va noritmik ko’rinishda. Qaviq yo’nalishlari qo’l harakati qanday to’g’ri kelsa shundayligicha tikib ketaveriladi. Avval igna sanchib bir necha marta teshiklar ilib olinadi va ip o’tkaziladi so’ngra, bir qadam orqaga tikib olinadi va shu tariqa takrorlab tikikiladi.

Kavanditexnikasidagiko’rpalarikkixilbo’ladiyanikattalarvabolalaruchun. Ba’zan bolalar uchun tikiladigan ko’rpalar kattaroq bo’ladi.Sababi, ko’p bolali

oilalarda bolalar bir xonada to'p bo'lib uhlashadi.Bunday ko'rpalar uchun ikkita sari birlashtirib tikiladi.Kavandi texnikasida mato bo'laklari kerak paytda qaychi bilan kesiladi lekin, ko'pincha oddiy qo'lda yirtiladi.Detallar bir-biriga uchma-uch ulanmaydi balki, ustma-ust tikiladi, chetlari esa ichiga qayirib tikiladi. Har bir buyum ma'lum bir eskizga qarab tikilmasada, natija har doim jozibali va betakror bo'ladi. Xind xalqining quvnoq, hazilkash va beg'ubor sifatlari kavandi texnikasining rang barang bo'laklarida o'z aksini topgan desak mubolag'a bo'lmaydi[40].

## O'zbekistonda quroq texnikasining kelib chiqish tarixi

O'zbek xalqi qadimdan hunarmadchilik bilan kun kechirgan. Shu sababli xalqimiz hunarmand kishilarga alohida hurmat-e'tibor bilan qaraydi.O'zbekistonda hunarmanchilikning juda ko'p turlari mavjud. Masalan, kulollik, duradgorlik, temirchilik, misgarlik, binokorlik, toshtaroshlik, oʻymakorlik, kashtadoʻzlik, quroqchilik, koʻnchilik, tikuvchilik, toʻquvchilik, zargarlik, zardoʻzlik, boʻyoqchilik, kemasozlik, tunukasozlik va boshqalar. Quroqchilik, yani quroq usulida milliy buyumlar, kiyimlar tikish san'ati azaldan bizga momolarimiz tomonidan avloddan-avlodga meros bo'lib kelmoqda.Avvalo, quroq so'zi ''qurg'oq'' yani qurg'oqchilik so'zidan kelib chiqqan bo'lib, quroq tikish texnikasini qurg'oqchilik bo'lganidan keyingi yer yorilishi fakturasiga o'xshashligidan kelib chiqgan. O'zbekistonda quroqchilik qadimdan ma'lum bo'lib, o'ziga xos xususiyat va an'analarga boy. Bu san'at qadimiy tarixga ega, xususan, o'rta asrlarda Alisher Navoiyning "Nasoyim ul-muhabbat" devonida hamda HusaynVoiz Koshifiy asarlarida muraqqa'(quroq to'n, janda) avliyo yoki darveshlar kiyimi sifatida eslatilgan. O'rta asr tasavvuf namoyandalari ko'pincha muraqqa' yoki unga yaqin kiyimlarda tasvirlaganlar. Misol sifatida Kamoliddin Xusayn Guzurgihiyning "Majolis ul-ushshoq" asariga ishlangan miniatyuralarni keltirish mimkin. Quroq yoki muraqqa' kiyim egasini balo va qazolardan saqlaydi, degan tushuncha xalq orasida ommalashgan. O'zbekistonda har bir viloyatning o'ziga xos quroq tikish usullari mavjud. Jumladan, qatlama quroq turna, ko'z, oq

qush, tegirmon, quduq kabi tikish usullaridan foyadalanadilar va ular o'ziga xos ramziylikka egadir. Masalan, qadimda o'zbek xalqi yosh kelin-kuyovlarning yostiq jildlarini quroq texnikasida tikishgan.Buning ma'nosi yosh kelin-kuyovning hayoti bir-biriga quroq kabi ulanib, mustahkam rishtaga aylansin, ahil-inoq oila bo'lsin deganidir.

**Samarqand va Buxoroda quroq texnikasi**

Samarqand va Buxoroda quroq texnikasi ko'proq bolalar liboslarida qo'llanilgan. Buning o'ziga xos ma'nosi bo'lib, yosh bolalarni yomon ko'zlardan asraydi deb hisoblashgan.Kelinlar sarpasida quroq texnikasidan tayyorlangan buyumlar bo'lishi shart bo'lgan. Ularga quroq texnikasidagi buyumlarni buvilari va momolari tikishgan. Bir tomondan ularning bo'sh vaqtlarini unumli o'tsa, ikkinchi tomondan kelin sarpasining asosiy buyumlari tayyor bo'lgan. Kelin sarpasiga quroq texnikasida tikilgan buyum berilishi azaliy udumlardan sanalib, bu an'ana hanuzgacha saqlanib kelinmoqda.Buning ramziy ma'nosi kelin-kuyov ham shu quroq kabi o'zidan ko'paysin deganidir. Nikoh marosimlarida kelin va kuyov quroq texnikasida tikilgan ko'rpacha ustida va quroq texnikasida tikilgan dasturxon yonida o'tirishgan. Chimildiqda 40 kun chilla vaqtida quroq texnikasida tikilgan dasturxon tutilgan. Dasturxon o'lchami 80x80 bo'lib, to'rtburchak shaklda bo'lgan. Kelinlar sepiga 2ta quroq yostiq, 1ta quroq ko'rpacha va 1ta quroq texnikasida tikilgan dasturxon bo'lgan. Quroq yostiqlar kelinning yangi uyidagi taxlamdagi ko'rpa va ko'rpachalarning ustiga bezak sifatida yasatib qo'yilgan.Yangi kelin-kuyovlarning xonasiga quroq texnikasidagi buyumlarni qo'yilishining yana bir sababi, kelgan mehmonlarning har xil yahshi-yomon nazarlari yosh kelin-kuyovga emas, aynan shu quroq texnikasidagi buyumlarga tushsin deganidir. Chindan ham quroq texnikasidagi buyumlar o'zining jimjimador va rang-barangligi bilan inson diqqatini o'ziga jalb etadi.

Samarqand va Buxoroda quroq texnikasining shakllari ko'proq to'rtburchak va uchburchak shakllarda bo'lib, asosan oq ranglardagi bo'lakchalarni boshqa hil rangdagi bo'lakchalar bilan uyg'unlashtirilgan holda ishlatishgan.To'rtburcak shakllarni romb shaklida qatorlashtirib tikish usuli – ''olmaqator'' deb nom

olgan.Shuningdek, quroq texnikasining taxlamali uslubidan ham keng foydalanishgan. Bu usul- ‘’tirna’’ deb nomlangan. Ushbu texnikada tikilgan uy ro’zg’or buyumlari yani ushlagichlar, choynak yopgichlar, ko’rpacha va hokazolar shular jumlasidandir.(I-bob. 4-rasm)



**I-bob.4-rasm. Quroq texnikasida tikilgan yostiq jildi(Samarqand).**

## Xorazm quroq uslubi

Xorazm viloyatida quroq texnikasidan tikilgan buyumlarni asosan qariya ayollar, yani buvilar qiz nabiralarining kelinlik sepiga atab tikishgan. Ular quroq tikish uchun asosan oq va qora ranglardagi matolardan foydalanishgan. Buning ma’nosi hayotning o’n besh kuni qorong’u bo’lsa, o’n besh kuni yorug’dir deganidir.Quroq tikish uchun yahlit matoni kesishdan oldin irim qilib bir chetidan kertik berib qirqishgan.Boshqa viloyotlarda bo’lgani kabi, Xorazm viloyatida ham kelinlar sarpasida quroq texnikasidan tikilgan buyumlar bo’lishi shart bo’lgan. Bular, yostiq jildlari, ko’rpa avrasi va chimildiq ustiga ilish uchun choyshab. Yostiq jildlarini tikishda boshga botganligi va noqulaylik tug’dirganligi uchun yaltiroq matolardan foydalanilmagan.(I-bob. 5-rasm)



**I-bob.5-rasm. Xorazm quroq texnikasida tikilgan yostiq jildi.**

## Surxondaryova Qashqadaryo quroq uslubi

Qadimdan o‘zbek xalqi hunarmandchilik bilan kun kechirgan. Shuning uchun xalqimiz hunarmand kishilarga alohida hurmat-e’tibor bilan qaraydi. Avvalo, hunarmandchilik so‘zining asl ma’nosini izohlaydigan bo‘lsak, har xil mehnat qurollari yordamida mavjud xomashyodan chiroyli buyumlar ishlab chiqariladigan hunarlarning umumiy nomi hunarmandchilik deb yuritiladi. Bizlarga momolarimiz tomonidan avloddan avlodga meros bo‘lib kelayotgan milliy hunarmandchiligimizning sir-asrorlari saqlanib, o‘rganilib kelinmoqda. Ana shunday hunarlardan biri “Quroq” usulida milliy kiyimlar, buyumlar tikish san’atidir.

Surxondaryova Qashaqadaryo quroqlari qadimda, asosan bolalar kiyimlarida qo’llanilgan. Keyinchalik bu texnika rivojlanib bordi va hunarmanchilikning ajoyib yo’nalishlaridan biriga aylandi. Surxon quroqlarining o’ziga xosligi shundaki, ularda yorqin ranglar ishlatilganligi va kashtalarning tikilganligidadir. Surxondaryova Qashqadaryo quroqlari ham kashtalar kabi shakllarga ega bo’lib, ko’proq dumoloq va uchburchak shakllardan foydalanilgan. Asosan qizil, yashil, sariq va ko’k ranglardan tikilgan.(I-bob.6-rasm).



**I-bob.6-rasm. Surxon quroq texnikasida tikilgan yostiq jildi.**

## Farg'ona quroq uslubi

Quroqchilik Farg'ona viloyatining So'x tumanida xalq turmush tarzining ajralmas qismi xisoblanadi.Chunki quroqdan tikilgan buyumlar inson tug'ilganidan to hayotining so'nggi manziligacha bo'lgan davrda barcha an'anaviy milliy marosimlarda ishlatiladi. Masalan, go'dak dunyoga kelganining oltinchi kunida serfarzand nuroniy otaxon va onaxonlarning uylaridan 15 tadan ortiq mato qiyqimlari yig'ib olinib, " farzandimiz ham shularga o'xshab uvali- juvali bo'lsin uzoq umr ko'rsin", deya niyat qilib, ushbu parchalardan tikib qavilgan to'ncha chaqaloqqa chillasi chiqquncha kiydiriladi.

Nikoh marosimlarida esa ikki yosh baxtli yashashlari ularga ko'z tegmasligi, yomon ko'zdan saqlashi uchun hamda serfarzand bo'lishlarini tilab go'shanganing ikki tomoniga "qatlama" quroq, kelin-kuyov uyining oldiga "poyandoz quroq" to'shaladi. Shuningdek, kelin-kuyov oldiga "quroq dasturxon" ham solinib, ikki yoshning noni va nasibasi butun bo'lishiga tilak bildiriladi. Kelin-kuyovlarning ko'rpa yostiqlari jildlariga rang-barang quroqning qo'llanilishiga sabab, kelgusida ularning o'g'il-qiz farzandlari aralash tug'ilsin, degan ramziy ma'no yotadi.Quroqlarning ramziy ma'noda oq-qora, qizil-ko'k va boshqa ranglar bilan

qorishig'i yoshlar bir-birlari bilan chatishib ketishi totuv yashashlariga ishoradir. Quroqdan, shuningdek, dafn marosimlarida "balish quroq" tikiladi.

**Jizzah quroq uslubi**

Jizzahda "Turna", "Ko'z", "Ulama", "Qatlama", "Tirna", "Quduq", "Shaxmat" kabi quroq texnikasida beshik uchun asboblar, poyandoz, quroq chimildiq, quroq yostiqlar kabilar tikiladi. Beshik uchun tikilayotgan quroq buyumlarining asl ma'nosi farzandlar sog'-salomat bo'lib, yani har bir oilaga qiz yoki o'g'il farzandlar nasib etsin va ularga ko'z tegmasin, deya niyat qilinadi. Nikoh to'ylarida, kelinga bir dona poyandoz, quroq chimildiq, bir dona quroq ko'rpa, 10 dona quroq yostiq, quroq bolish beriladi. Yana bir an'anaviy udumga ko'ra, kuyovning onasi niyat qilib 100dan ortiq mato qiyqimlaridan to'shak tikadi. To'shakning bir chekkasiga tumorcha va to'shakning boshqa burchagiga "qo'yning oshig'i" maxfiy ravishda tikiladi. Maqsad, ikki yoshning baxti mangu bo'lib, ular butun umr "oshiq-moshiq" bo'lishlari baxtlari bir umrlik butun bo'lishi nazarda tutiladi.

Sunnat to'ylarida esa, to'y bolalarga quroqdan bir juft yostiq, to'shak hamda yasatilayotgan toy uchun xurjun, bo'yintumorlar tikiladi[11].

## 1.2Quroq texnikasining turlarini o'rganish, tahlil qilish

Quroq texnikasi tarixdan bugungi kunga qadar rivojlanib, kengayib bormoqda.Hozirda ushbu tehnikaning ko'plab turlari mavjud bo'lib, ular turli usullarda bajariladi. Quroq texnikasini turlarini o'rganish jarayonida quyidagi usullari tahlil qilindi:

Uchburchaklar usuli – bu usulda turli ranglardagi matolar avval to'rtburchak shakllarda kesilib, so'ng o'rtasidan kesib uchburchak hosil qilinadi va ikki uchburchakni ranglari ozgartirib yana to'rtburchak qilib tikiladi va barcha to'rtburchaklar bir-biriga ulanadi. Barcha choklar ichki tomondan tikiladi [12](I-bob.7-rasm)



**I-bob.7-rasm. Quroq texnikasining uchburchaklar usuli.**

Koleydaskop – beshburchak qilib kesilgan mato bo'laklari ranglari va naqshlariga qarab har hil qilib joylashtiriladi va ichki choklar yordamida tikiladi [41] (I-bob. 8-rasm).



**I-bob.8-rasm. Quroq texnikasining koleydaskop usuli.**

Tezkor to'rtburchaklar – bu usul o'zining nomiga mos ravishda oson va tez bajarilishi bilan o'ziga hosdir. Uni bajarishda turli ranglardagi mato bo'laklari bir-biriga ulanadi va kesiladi, kesilgan tomonlar esa yana bir-biriga ulanadi va natijada boshqa bir naqshli quroq hosil bo'ladi[42] (I-bob.9-rasm).



**I-bob.9-rasm. Quroq texnikasining tezkor to'rtburchaklar usuli.**

Yumshoq bo’laklar(Пуфики) usuli – yahlit mato ustiga katak qilib chiziladi va har bir katak o’lchamidan 3-4sm kattalikda to’rtburchaklar kesib chizilgan katak ustiga to’g’irlab tikiladi bir tomoni ochiq qoldirilib o’sha joyidan sintefon yoki pahta tiqiladi va tikiladi. Shu tariqa har bir kataklar to’ldiriladi. Ushbu usulni yana boshqa bir yo’l bilan tayyorlash ham mumkun, ikkita bir hil shakl kesilib ichki tomondan tikiladi va tashqariga o’girilib ochiq qolgan joyidan sintefon tiqiladi. Har bir bo’laklar shu tariqa tikiladi va bir-biriga qo’l choki yordamida tikib chiqiladi[43] (I-bob.10-rasm).



**I-bob.10-rasm.Quroq texnikasining yumshoq bo’laklar usuli.**

Akvarel usuli – quroq texnikasining ushbu usuli juda ham originalligi bilan boshqa usullardan ajralib turadi. Bunda matolarning ketma-ket joylashuvida ranglar gammasining to’qarib yoki ocharib borishi ko’rsatiladi[44](I-bob.11-rasm).



**I-bob.11-asm.Quroq texnikasining akvarel usuli.**

Zig-zagbo’laklarusuli- matobo’laklariuzunto’rtburchakshakllardakesiladivazig-zagshaklbo’yichabir-birigaulanadi. Ushbu usulniyana boshqa texnikada bajarilsa, yana bir boshqa naqsh

yani o’rilgan soch o’rami naqshi hosil bo’ladi. Buning uchun shakllarni o’rilgan holat shakli bo’yicha tikiladi [13](I-bob.12-rasm)




**I-bob.12-rasm.Quroq texnikasining zig-zag bo’laklar usuli.**

Quduq usuli – bu usulda uzun to’rtburchaklar maydadan yirikka qarab to’rtburchak shakl bo’yicha tikiladi[45] (I-bob.13-rasm).




**I-bob.13-rasm. Quroq texnikasining quruq usuli.**

Artishokusuli- ushbuusuldamatobo’laklaritaxlabchiqiladivabir-biriningustigayokiichigakirgizilibtikiladi(I-bob.14-rasm).



**I-bob.14-rasm. Quroq texnikasining artishok usuli.**

Kreyzi usuli – bu usulda xoxlagan shakldagi mato bo’laklaridan foydalanish mumkin. Matolarni ulashda aniqlik talab etilmaydi[46](I-bob.15-rasm).




**I-bob.15-rasm.Quroq texnikasining kreyzi usuli.**

Qaviqli usul (Quilting) – bu usulda quroq tikilganidan so’ng uni sintevatin matosi ustiga qoyib ustidan mashina yoki qo’l choklari yordamida tikib chiqiladi.[47] (I-bob.16-rasm).



**I-bob.16-rasm. Quroq texnikasining qaviqli usuli (quilting).**

Zig zag chokli quroq – bu usulda mato bo’laklari avval dublirinlab chiqiladi va yaxlit mato ustiga terilib bir biriga mashinaning zig zag choki yordamida tikiladi. Bu usulni qalin matolarda ham qo’llash mumkun, buning uchun, mato bo’laklari bir- biriga uchma-uch qilib tikiladi.(I-bob.17-rasm)



**I-bob.17-rasm. Quroq texnikasining zig-zag chokli usuli.**

Popukli quroq usuli – bunda mato bo’laklari ustki tomoniga tikilib ulanadi. Choklarning cheti esa qo’lda titib chiqiladi va popuklar hosil bo’ladi bu usul uchun jinsi matosi judaham mos keladi.(I-bob.18-rasm)



**I-bob.18-rasm. Quroq texnikasining popukli usuli.**

Sinnel usuli – ushbu usulda quroq texnikasi har doimgidek ichki choklar yordamida tikiladi va sintevatin matosi ustiga qoyib qavib chiqiladi qavilgan choklar orasi esa mahsus scalpel pichog’i yordamida kesib chiqiladi[48] (I-bob.19-rasm).



**I-bob.19-rasm. Quroq texnikasining sinnel usuli.**

Tukli quroq texnikasi- bu texnikada matoning mayda qoldiqlari bir-biriga birlashtirib tikilmaydi. Turli ranglardagi mayda mato qoldiqlarini ranglar uyg’unligini hosil qilib, asosga shunchaki mustahkamlab, rasm ko’rinishida tayyorlanadi. Bu texnika yordamida ko’pincha pannolar, tasviriy san’at asarlari va sumkalartayyorlanadi[49](I-bob.20-rasm).



**I-bob.20-rasm. Vorstli quroq texnikasi.**

Mo’ynali quroq texnikasi – bu usulni tikishda turli rang va fakturalardagi tabiiy va sun’iy mo’ynalardan foydalaniladi. Agar mo’yna ko’ptukli va pahmoq bo’lsa, uni ichki choklar yordamida tikiladi. Aksincha taqirroq tukli mo’ynalar bo’lsa zig-zagchoklar usulida tikiladi. Quroq texnikasining ushbu bejirim usuli asosan ustki kiyimlarda qo’llaniladi. Ushbu usul mayda qoldiq mo’ynalar yoki kichkina jonivorlar mo’ynasidan buyum yaratishda juda qo’l keladi [50]. (I-bob.21-rasm).



**I-bob.21-rasm. Quroq texnikasining mo’ynali usuli.**

To’qilgan bo’lakchalar usuli – bu usuldagi quroq texnikasini yaratishda pryaja iplaridan foydalaniladi.To’qish usuli esa kruchok yordamida to’qiladi. Turli ranglardagi iplar to’rtburchak shakllarda to’qiladi va bir-biriga ulab chiqiladi. Ushbu texnikani quroq va to’qish texnikasining uyg’unlashuvi deyish ham mumkin[14] (I-bob.22-rasm).



**I-bob.22-rasm. Quroq texnikasining to’qilgan bo’lakchalar usuli.**

Kavandi – bu texnika Xindiston quroq texnikasi hisoblanadi. Ushbu texnikani tikish uchun asos sifatida  paxta tolali matoli sari olinadi uning ustiga eski kiyim bo’laklari katta bo’lakdan kichik bo’lakka qarab tikib boriladi. Eng usti qismiga esa eski kiyimlarning  toshlar tikilgan bo’laklari, cho’ntak qopqoqlari, kashtali bo’laklar, piston taqilmali bo’laklar kabi dekorativ qismlar tikib chiqiladi. Ko’p qavatli bo’lgan bu texnikani tikishda issiq ushlovchi qatlamlar yani paxta yoki sintevatindan foydalanilmaydi.Mato bo’laklari qo’l choklari yordamida chetlati qayirilib qavib chiqiladi. Qaviqlar yo’nalishlari barcha buyumlarda bir xil ya’ni to’g’ri yo’nalishda, ba’zan esa xind qavish texnikasi bo’lgan “Kantxa” aks sado ko’rinishidagi qavish texnikasini ham uchratish mumkin. Qaviq yo’nalishlari juda mayda va noritmik ko’rinishda. Qaviq yo’nalishlari qo’l harakati qanday to’g’ri kelsa shundayligicha tikib ketaveriladi. Avval igna sanchib bir necha marta teshiklar ilib olinadi va ip o’tkaziladi so’ngra, bir qadam orqaga tikib olinadi va shu tariqa takrorlab tikiladi [15] (I-bob.23-rasm).




**I-bob.23-rasm. Kavandi texnikasi.**

Kantri uslubidagi quroq texnikasi – bu quroq texnikasida qavish birlashtirish va applikatsiya texnikalaridan foydalanib, turli hil uy uslubini ko'rsatuvchi pannolarni yaratish mumkin[51] (I-bob.24-rasm).



**I-bob.24-rasm. Kantri stilidagi quroq texnikasi.**

Ignasiz quroq usuli – bu usul yordamida turli o'lcham va shakldagi po'kak doskalarga rasm chizib, mato va yelim yordamida rasm qismlarini chetlari scalpel pichoq bilan kirg'izib chiqiladiva quroq texnikasidagi rasmlar tayyorlanadi. Ignasiz quroq texnikasida ignadan foydalanilmaydi, faqat yelim, qalam, qaychi va turli rangli mato bo'laklaridan foydalaniladi [16](I-bob.25-rasm).



**I-bob.25-rasm. Ignasiz quroq texnikasi.**

Kreshusuli – buusulo'ziningjudahambejirimvatakrorlanmasko'rinishibilanboshqaquroqtexnikalaridantubdanfarqqiladi. Butexnikanitayyorlashda,asosanyupqamatolardanfoydalaniladi.Istalganshakldagimatobo'laklaribir-birigaichkichoklarbilanulanadivaho'llabsiqibolinadi. G'ijmbo'lganmatonidubleringag'ijmligichayopishtiriladi.Natijada,ajoyibfakturadagiquroqtexnikasipaydobo'ladi [52](I-bob.26-rasm).



**I-bob.26-rasm. Kresh texnikasi.**

Ushbu quroq usuli O’zbekistonning Samarqand va Buxoro viloyatlarida ko’proq ishlatiladi. To’rtburchak shakllar romb shaklida terib, ichki choklar orqali tikiladi. Bu usul – olmaqator deb nomlanadi.(I-bob.27-rasm)



**I-bob.27-rasm. Samarqand va Buxoroning olmaqator usuli.**

Quroq texnkasining ushbu usuli O’zbekistonning deyarli barcha hududlarida mavjud bo’lib, uning nomi- tirna deb ataladi. Mayda mato bo’laklari to’rt buklab tahlanadi va aylana shaklidagi mato ustiga markazidan boshlab aylantirib tikiladi.(I-bob.28-rasm)



**I-bob.28-rasm. Quroq texnikasining tirna usuli.**

O’zbekistonning Xorazm viloyatida ushbu usul juda keng tarqalgan bo’lib, uning nomi ‘’ko’z’’ deb ataladi. Ushbu quroq usulini tikishda oq va qora ranglardan foydalaniladi. Mato bo’laklari ichki choklar yordamida bir-biriga ulanadi.(I-bob.29-rasm)



**I-bob.29-rasm. Xorazm quroq usuli - ko'z.**

Kashtali quroq usuli. Ushbu usul O'zbekistonning Surxondaryo va Qashqadaryo viloyatlarida tikiladi. Quroqlar oddiy ichki choklar usulida tikilsa-da, ularga kashtalar ham tikiladi, shu sababli bu usul kashtali quroq usuli deb nomlanadi.(I-bob.30-rasm)



**I-bob.30-rasm. Quroq texnikasining kashtali usuli.**

Turnaqatorusuli – ushbutexnika O'zbekistonhududidauchraydiganquroqtexnikasidatikilganbuyumlarningbarchasida qo'llaniladi.Buusulbilanquroqtexnikasidatikilganyostiqjildlari, ko'rpaavralar, dasturxonvako'rpachalarningchetkiqismlariuchburchakshakllariniketma-ketjoylashtirganholda, ichkichoklaryordamidaaylantiribtikibchiqiladi.(I-bob.31-rasm)



**I-bob.31-rasm. Quroq texnikasining turnaqator usuli.**

Qatlama quroq – ushbu usul,asosan O'zbekistonning Jizzah viloyatida ishlatiladi.Bu usulda mato bo'laklari mayda uzun shakllarda kesib olinadi va bir biriga qatorasiga ichki choklar yordamida ulab chiqiladi(I-bob.32-rasm).



**I-bob.32-rasm. Qatlama quroq usuli.**

## 1.3 Quroq texnikasidan kompozitsiyani yaratishda foydalailadigan uskunalar, ranglar va matolar tahlili

Quroq texnikasida buyumlar yaratishda qalam, turli shakllardagi qoliplar, ignalar, mel, to'g'nag'ichlar, sintevatin, xar hil turdagi iplar, dazmol, qaychi, g'ildirakli qaychi, chizg'ich va tikuv mashinasi kabi asbob va uskunalardan foydalaniladi.

Quroq usulida ranglar uyg'unligiga juda katta e'tibor berish lozim. Chunki noto'g'ri tanlangan ranglar buyumning tashqi ko'rinishi oddiy yoki ko'rimsiz bo'lib qolishiga sabab bo'ladi. Ranglarni tanlashda to'rt xil yo'nalish mavjud bo'lib, birinchi yo'nalish bir-biriga o'tuvchi ranglar hisoblanadi.Bunday ranglar insonga sokinlik baxsh etadi.Masalan, qizil rangdan ko'k ranggacha o'tuvchi ranglar. Ikkinchi xil ranglar uyg'unligi bu uch xil rang birlashmasi. Bu ranglar birlashmasi ranglar qatorining uch xil nuqtasidan olinadi. Masalan, qizil, sariq va ko'k. Uchinchi xil ranglar uyg'unligi qo'shimcha ranglar, bu usulda bir-biriga o'xshash ranglar orasiga yorqin vaquvnoq ranglar qo'shish orqali muvaffaqiyatga erishiladi. To'rt xil ranglar uyg'unligi bu kontrast ranglardir. Masalan, qizil va yashil, ko'k va sariq [17].

Quroq texnikasida ko'proq paxta tolali matolar keng qo'llaniladi. Ular arzon, bichishga oson, tikilayotganda sirpanmaydi, qo'lda qilingan taxlamlarni ushlaydi

va endi boshlagan hunarmandlarga juda qulay matodir. Paxta tolali matolarning kamchiligi shundaki, ular yuvilganda kirishadi va g'ijimlanadi.

Lyon matosi - tikishga yengil, kamroq kirishadi, chidamli. Bu mato astarlik va fon sifatida ommalashgan. Lyon matosi qattiq g'ijimlanadi va qiyin dazmollanadi.(I-bob.33-rasm)

Shoyi - o'zining harir fakturasi, tabiiy yaltiroqligi va yorqin rangi bilan buyumlarda yutuqli ko'rinadi. U baland issiq temperaturalarda va yuvilishda kirishadi, tikishga va bichishga qiyin, kesilganda chetlari titiladi.(I.bob.34-rasm)

Kamdan-kam hollarda quroq texnikasida jun matosi ishaltiladi. Jun matosi issiq mato bo'lganligi uchun undan choyshablar, yostiqlar, ustki kiyimlar tayyorlashda foydalaniladi. Jun matosining chetlari qalin va titilmaydi, jun matosidan tikilgan buyumlar o'z shaklini yahshi ushlaydi. Jun matosining bo'laklarini bir-biriga uchma uch qo'ygan holda mashinaning ''zig-zag'' chokida ham tikish mumkin.(I-bob.35-rasm)

Notabiiy va sintetik matolar - bashang ko'rinishadi, ular g'ijmlanmaydi va yahshi yuviladi, namlikni o'tkazmaydi. (I-bob.36-rasm)

Viskoza matolar - shakl ushamasligi tufayli qiyin tikiladi, sirpanadi, kuchli g'ijimlanadi, yuvilganda kuchli kirishadi.Shuning sababli, viskozani albatta kraxmallab ishlatish kerak. (I-bob.37-rasm)

Adras – abr iplar bilan gul solingan nimshoyi mato. Adrasning bir xil rangdagi naqshsiz turlari ham bor.Ranglari tabiiy bo'lganligi sababli, asosan bashang liboslarda qo'llash tavsiya etiladi. (I-bob.38-rasm)

Djinsi – sarja usulida to'qilgan elastik va paxta tolali mato. Quroqning barcha turlari uchun qulay mato bo'lib, asosan popukli texnikasida ishlatiladi[18](I-bob.39-rasm).




**I-bob.33-rasm.Lyon matosi** **I-bob.34-rasm. Shoyi matosi**



**I-bob.35-rasm.Jun matosi**



**I-bob.36-rasm. Notabiiy sintetik mato**



**I-bob.36-rasm. Viskoza matosi**



**I-bob.37-rasm.Adras matosi**



**I-bob.39-rasm. Djinsi matosi**

## I-Bob bo'yicha xulosa

Quroq texnikasi juda qadim o'tmishga ega bolib, dunyoning ko'plab xalqlari turmushida ushbu texnikadan foydalanib kelingan. Uning tarixini o'rganish va tahlil qilish natijasida,kelib chiqish sabablari dunyoning turli mamlakatlarida turlicha ekanligi aniqlandi. Masalan, Angliyada satin matosi yetishmovchiligi natijasida, uning bichimlaridan qolgan qoldiq mato bo'laklarini bir-biriga ulab, yaxlit mato yaratishga ehtiyoj sezilgan natijada bu mamlakatda quroq texnikasi paydo bo'lgan.Keyinchalik bu texnikani ko'chmanchilar Shimoliy Amerikaga olib ketdilar. Ko'chmanchilar turmush kechirish darajasi pastligi tufayli, ular orasida quroq texnikasidan tayyorlangan kiyimlar, uy-ro'zg'or buyumlari, ko'rpa va choyshablar keng qo'llanilgan. Ushbu buyumlar asosan eski kiyimlandan tayyorlangan.Buning sababi, ko'chmanchi xalq orasidagi eski kiyimlarni isrof qilmaslik hissidir.Rossiyada quroq texnikasining kelib chiqish tarixi juda qadim o'tmishga egadir. XIX asrning ikkinchi yarmida sotuvda cheklangan miqdorda satin matosi paydo bo'lishi bilan mato qoldiqlaridan yaxlit mao tikishga ehtiyoj sezilganligi tufayli quroq texnikasi paydo bo'lgan. Xindistonning chekka qishloqlarida ham quroq texnikasi azaldan paydo bo'lgan.Xind xalqining ko'pfarzandli oilalari orasida, eski sarilar ustiga mayda mato bo'laklari tikilgan ko'rpalar xonadon bekalari tomonidan tayyorlanib kelingan.O'zbekistonda esa quroq texnikasi qadimdan ma'lum bo'lib, o'ziga xususiyat va an'analarga boy. O'zbekiston hududida quroq texnikasi asosan ramziy ma'no na'munasi sifatida yuzaga kelgan.

Bugungi kunda quroq texnikasining juda ko'plab turlari ma'lum bo'lib, ular tikish usullari va fakturalari bilan bir-biridan farqlanadi. Quroq texnikasi turlarini o'rganish natijasida uning koleydaskop, shaxmat, artishok, sinnel, zig-zag bo'laklar, akvarel, olmaqator, turnaqator, qatlama quroq kabi ko'plab turlari aniqlandi. Quroq texnikasida buyumlar tayyorlash uchun kerakli ish qurollari, mato turlari va ranglar yechimlari o'rganib chiqildi va tahlil qilindi.

**II-bob.Tajriba-sinovqismi.**

## 2.1 Quroqtexnikasinitizimlashtirish

2.1-jadval

| Yevropa quroq texnikasi | | | |
|---|---|---|---|
| № | Nomi | Ko'rinishi | Ta'rifi |
| 1 | 2 | 3 | 4 |
| 1 | Tezkor to'rtburchaklar |  | Bu usul o'zining nomiga mos ravishda oson va tez bajarilishi bilan o'ziga hosdir. Uni bajaris turli ranglardagi mato bo'laklari bir-biriga ulanadi va kesiladi, kesilgan tomonlar esa yana bir-bi ulanadi va natijada boshqa bir naqshli quroq hosil bo'ladi. |
| 2 | Zig-zag bo'laklar usuli |  | Matobo'laklariuzunto'rtburchakshakllardakesiladivazig-zagshaklibo'yichabir-birigaulanadi. Ushbuusulnuyanaboshqatexnikadabajarilsa,yanabirboshqanaqshya'nio'rilgansochnaqshihosilbo'l Buninguchunshakllarnio'rilganholatshaklibo'yichatikilsakifoya. |

| 1 | 2 | 3 | 4 | 5 |
|---|---|---|---|---|
| 3 | Sinnel usuli |  | Ushbuusuldaquroqtexnikasihardoimgidekichkichoklaryordamidatikiladivasintevatinmatosi ustigaqoyibqavibchiqiladiqavilganchoklarorasiesamaxsusskalpelpichog'iyordamidakesibchiqiladi. |   |
| 4 | Popukli qurroq usuli |  | Bu usulda mato bo'laklari ustki tomonga tikilib ulanadi. Choklarning cheti esa qo'lda titib chiqiladi va popuklar hosil bo'ladi bu usul uchun jinsi matosi judaham mos keladi. |  |

| 1 | 2 | 2 | 3 | 4 |
| --- | --- | --- | --- | --- |
| 5 | Mo'ynali quroq texnikasi |  | Buusulnitikishdaturlirangvafakturalardagitabiiyvasuniymo'ynalardanfoydalaniladi. Agarmo'ynako'ptuklivapahmoqbo'lsa, uniichkichoklaryordamidatikiladi. Aksinchakaltatuklimo'ynalarbo'lsa, zig-zagchoklarusulidatikiladi. Quroqtexnikasiningushbubejirimusuliasosanustkikiyimlardaqo'llaniladi. Ushbuusulmaydaqoldiqmo'ynalaryokikichkinajonivorlarmo'ynasidanbuyumyaratishdajudaqo'lkeladi. |  |
| 6 | Kantri stilidagi quroq texnikasi |  | Buquroqtexnikasidaqavishbirlashtirishvaapplikatsiyatexnikalaridanfoydalanib, turlihiluyuslubiniko'rsatuvchipannolarniyaratishmumkin. |  |

| 1 | 2 | 3 | 4 | 5 |
| --- | --- | --- | --- | --- |
| **7** | Artishok usuli |  | Ushbu usulda mato bo'laklari asos mato ustiga ketma-ket taxlab chiqiladi. Taxlangan bo'laklarning o'rtasidan chok yurgiziladi va bir-birining ichiga kirgizilib soch o'rami kabi o'rab chiqib tikiladi. |  |
| 8 | Ignasiz quroq usuli |  | Buusulyordamidaturlio'lchamvashakldagipo'kakdoskalargarasmchizib, matovayelimyordamidarasmqismlarinichetlariskalpelpichoqbilankirg'izibchiqiladivaquroqtexnikasidagirasmlartayyorlanadi. Ignasizquroqtexnikasidaignadanfoydalanilmaydi, faqatyelim, qalam, qaychi, skalpelpichoqvaturliranglimatobo'laklari. |  |

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| 9 | Kres h usuli |  | Butexnikanitayyorlashda,asosanyupqamatolardanfoydalaniladi. Istalganshakldagimatobo’laklaribir-birigaichkichoklarbilanulanadivaho’llabsiqibolinadi. G’ijmbo’lganmatonidubleringag’ijmligichayopishtiriladi. |  |

2.2-jadval

| **Rossiya quroq texnikasi** | | | | |
|---|---|---|---|---|
| № | Nomi | Ko’rinishi | Ta’rifi | Tikish texnikasi |
| 1 | 2 | 3 | 4 | 5 |
| 1 | Shaxmat usuli |  | Buusulidamatobo’laklarito’rtburchakshakldak esiladivabir-birigaichkichoklaryordamidaulanadi. Ba’zanbo’laklarranglarishaxmatranglaritartibi dabo’ladi. |  |
| 2 | Uchburchaklar usuli |  | Bu usulda turli ranglardagi matolar avval to’rtburchak shakllarda kesilib, so’ng o’rtasidan kesib uchburchak hosil qilinadi va ikki uchburchakni ranglari ozgartirib yana to’rtburchak qilib tikiladi va barcha to’rtburchaklar bir-biriga ulanadi. Barcha choklar ichki tomondan tikiladi. |  |

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| 3 | Quduq usuli |  | Bu usulda uzun to’rtburchaklar maydadan yirikka qarab to’rtburchak shakl bo’yicha tikiladi. |  |

| 1 | 2 | 3 | 4 | 5 |
|---|---|---|---|---|
| 4 | Yumshoq bo’laklar(Пуфики) usuli |  | Yaxlit mato ustiga katak qilib chiziladi va har bir katak o’lchamidan 3-4sm kattalikda to’rtburchaklar kesib chizilgan katak ustiga to’g’irlab tikiladi bir tomoni ochiq qoldirilib o’sha joyidan sintefon yoki pahta tiqiladi va tikiladi. Shu tariqa har bir kataklar to’ldiriladi. Ushbu usulni yana boshqa bir yo’l bilan tayyorlash ham mumkun, ikkita bir hil shakl kesilib ichki tomondan tikiladi va tashqariga o’girilib ochiq qolgan joyidan sintefon tiqiladi. Har bir bo’laklar shu tariqa tikiladi va bir-biriga qo’l choki yordamida tikib chiqiladi. |  |

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| 5 | Koleydaskop |  | Beshburchak qilib kesilgan mato bo’laklari ranglari va naqshlariga qarab har hil qilib joylashtiriladi va ichki choklar yordamida tikiladi. |  |

| 1 | 2 | 3 | 4 | 5 |
|---|---|---|---|---|
| 6 | To’qilganbo’lakchalarusuli |  | Bu usuldagi quroq texnikasini yaratishda to’qish iplaridan foydalaniladi. To’qish usuli esa kruchok yordamida to’qiladi. Turli ranglardagi iplar to’rtburchak shakllarda to’qiladi va bir-biriga ulab chiqiladi. Ushbu texnikani quroq va to’qish texnikasining uyg’unlashuvi deyiladi. |  |

2.3-jadval

| **Amerika quroq texnikasi** | | | | |
|---|---|---|---|---|
| № | Nomi | Ko'rinishi | Ta'rifi | Tikisg texnikasi |
| 1 | 2 | 3 | 4 | 5 |
| 1 | Kreyzi usuli |  | Bu usulda xoxlagan shakldagi mato bo'laklaridan foydalanish mumkin. Matolarni ulashda aniqlik talab etilmaydi. |  |

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| 3 | Qaviqli usul (Quilting) |  | Bu usulda quroq tikilganidan so’ng uni sintevatin matosi ustiga qoyib ustidan mashina yoki qo’l choklari yordamida qavib chiqiladi. |  |

| 1 | 2 | 3 | 4 | 5 |
|---|---|---|---|---|
| 4 | Zig zag chokli quroq |  | Bu usulda mato bo’laklari avval dublrinlab chiqiladi va yahlit mato ustiga terilib bir biriga mashinaning zig-zag choki yordamida tikiladi. Bu usulni qalin matolarda ham qo’lash mumkun, buning uchun, mato bo’laklari bir- biriga uchma-uch qilib tikiladi. |  |

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| 5 | Akvarel usuli |  | Quroq texnikasining ushbu usuli juda ham o’zgachaligi bilan boshqa usullardan ajralib turadi. Bunda matolarning ketma-ket joylashuvida ranglar gammasining to’qarib yoki ocharib borishi ko’rsatiladi. |  |
| 6 | Vorstli quroq texnikasi |  | Bu texnikada matoning mayda qoldiqlari bir-biriga birlashtirib tikilmaydi. Turli ranglardagi mayda mato qoldiqlarini ranglar uyg’unligini hosil qilib, asosga shunchaki mustahkamlab, rasm ko’rinishida tayyorlanadi. Bu texnika yordamida ko’pincha pannolar, tasviriy san’at asarlari va sumkalartayyorlanadi. |  |

2.4-jadval

| Xindiston quroq texnikasi | | | | |
|---|---|---|---|---|
| № | Nomi | Ko'rinishi | Ta'rifi | Tikish texnikasi |
| 1 | Kavandi |  | Ushbu texnikani tikish uchun asos sifatida paxta tolali matoli sari olinadi uning ustiga eski kiyim bo'laklari katta bo'lakdan kichik bo'lakka qarab tikib boriladi. Eng ustki qismiga esa eski kiyimlarning toshlar tikilgan bo'laklari, cho'ntak qopqoqlari, kashtali bo'laklar, piston taqilmali bo'laklar kabi dekorativ qismlar tikib chiqiladi. Ko'p qavatli bo'lgan bu texnikani tikishda issiq ushlovchi qatlamlar yani paxta yoki sintevatindan foydalanilmaydi. Mato bo'laklari qo'l choklari yordamida chetlati qayirilib qavib chiqiladi. Qaviqlar yo'nalishlari barcha buyumlarda bir xil yani to'g'ri yo'nalishda, bazan aks sado ko'rinishidagi qavish texnikasini ham uchratishimiz mumkin. Avval igna sanchib bir necha marta teshiklar ilib olinadi va ip o'tkaziladi so'ngra, bir qadam orqaga tikib olinadi va shu tariqa takrorlab tikiladi. |  |

2.5-jadval

| O’zbekistonquroqtexnikasi | | | | |
|---|---|---|---|---|
| № | Nomi | Ko’rinishi | Ta’rifi | Tikishtexnikasi |
| 1 | Olmaqator |  | To’rtburchakshakllarrombshaklida terib, ichki choklar orqali tikiladi. |  |
| 2 | Tirna |  | To’rtburchak mato bo’laklari ikki buklanadi va ikki uchi pastga tushirib uchli qilib taxlanadi va aylana shaklidagi mato ustiga markazidan boshlab aylantirib tikiladi. |  |
| 3 | Ko’z |  | Ushbu quroq usulini tikishda oq va qora ranglardan foydalaniladi. Mato bo’laklari ichki choklar yordamida bir-biriga ulanadi. |  |

| 1 | 2 | 3 | 4 | 5 |
|---|---|---|---|---|
| 4 | Kashtali quroq usuli |  | Quroqlar oddiy ichki choklar usulida tikilsa-da ularga kashtalar ham tikiladi, shu sababli bu usul kashtali quroq usuli deb nomlanadi. |  |
| 5 | Turnaqator usuli |  | Ushbu usul O’zbekiston hududida uchraydigan quroq texnikasida tikilgan buyumlarning barchasida qo’llaniladi. Bu usul bilan quroq texnikasida tikilgan yostiq jildlari, ko’rpa avralar, dasturxon va ko’rpachalarning chetki qismlari uchburchak shakllarini ketma-ket joylashtirgan holda, ichki choklar yordamida aylantirib tikib chiqiladi. |  |
| 6 | Qatlama quroq |  | Bu usulda mato bo’laklari mayda uzun shakllarda kesib olinadi va bir-biriga ketma-ket  ichki choklar yordamida ulab chiqiladi. |  |

2.6-jadval

| Quroq texnikasini asosiy tikish usullari | | |
|---|---|---|
| № | Ko'rinishi | Ta'rifi |
| 1 |   | **Ichki choklar texnikasi.** Mato bo'laklari mashina yordamida ichki choklar orqali ulab chiqiladi. Quroq texnikasining juda ko'p turlari asosan shu tikuv usulida bir-biriga ulanadi. |
| 2 |   | **Zig-zag choklar texnikasi.** Bu texnikada mato bo'laklari tikuv mashinasining zig-zag choki yordamida ulab chiqiladi. Mo'ynali, charm va qalin matolardan tayyorlanadigan quroq texnikalarida shu usul yordamida bo'lakchalar bir-biriga ulanadi. |
| 3 |   | **Kashtali quroq tikish texnikasi.** Bu usulni mashina va qo'l choklarida bajariladi. Mato bo'laklari bir-biriga ichki choklar yordamida ulanganidan so'ng, bezak choklar bilan bezatib chiqiladi. |

| | | |
|---|---|---|
| 4 |  | **Qaviqli quroq tikish texnikasi.** Mato bo'laklari bir-biriga ichki choklar bilan ulab chiqilgandan so'ng, tayyor yaxlit mato sintevatin ustiga qo'yilib mashina yordamida qavib chiqiladi. Qavish usullari to'g'ri yoki naqshli bo'ladi. |
| 5 |  | **Qo'l choki yordamida qaviladigan quroq texnikasi.** Bu tikish texnikasida mato bo'laklari bir- birga ulab chiqilganidan so'ng qo'l choki yordamida qavib chiqiladi. Qavish yo'nalishlari turli naqshli yoki to'g'ri bo'ladi. |
| 6 |  | **Sinel usuli.** Bu usulda mato bo'laklari qavilganidan so'ng, qaviqlar orasi maxsus pichoq, yoki maxsus qaychi yordamida kesib chiqiladi. |

| | | |
|---|---|---|
| 7 |   | **Yumshoq bo'laklarni tikish texnikasi.** Yaxlit mato ustiga katak qilib chiziladi va har bir katak o'lchamidan 3-4sm kattalikda to'rtburchaklar kesib chizilgan katak ustiga to'g'irlab tikiladi bir tomoni ochiq qoldirilib o'sha joyidan sintefon yoki pahta tiqiladi va tikiladi. Shu tariqa har bir kataklar to'ldiriladi. |
| 8 |   | **Tirna usulida quroq tikish texnikasi.** To'rtburchak mato bo'laklari ikkiga buklanadi va ikki uchi pastga tushirib uchli qilib taxlanadi va aylana shaklidagi mato ustiga markazidan boshlab aylantirib tikiladi. |
| 9 |   | **Artishtishok texnikasining tikish usuli.** Ushbu usulda mato bo'laklari asos mato ustiga ketma-ket taxlab chiqiladi. Tahlangan bo'laklarning o'rtasidan chok yurgiziladi va bir-birining ichiga kirgizilib soch o'rami kabi o'rab chiqib tikiladi. |

| | | |
|---|---|---|
| 10 |  | **To'qish usulidagi quroq texnikasi.** Bu usulda to'qish iplaridan foydalanib quroq texnikasida buyumlar yaratiladi. To'qish usuli esa kruchok yordamida to'qiladi. Turli ranglardagi iplar to'rtburchak shakllarda to'qiladi va bir-biriga ulab chiqiladi. Ushbu texnikani quroq va to'qish texnikasining uyg'unlashuvi deyiladi. |
| 11 |  | **Ignasiz quroq texnikasi.** Bu usul yordamida turli o'lcham va shakldagi po'kak doskalarga rasm chizib, mato va yelim yordamida rasm qismlarini chetlari scalpel pichoq bilan kirg'izib chiqiladiva quroq texnikasidagi rasmlar tayyorlanadi. Ignasiz quroq texnikasida ignadan foydalanilmaydi, faqat kley, qalam, qaychi, scalpel pichoq va turli rangli mato bo'laklaridan foydalaniladi. |
| 12 |  | **Tukli quroq tikish texnikasi.** Bu texnikada matoning mayda qoldiqlari bir-biriga birlashtirib tikilmaydi. Turli ranglardagi mayda mato qoldiqlarini ranglar uyg'unligini hosil qilib, asosga shunchaki mustahkamlab, rasm ko'rinishida tayyorlanadi. Bu texnika yordamida ko'pincha pannolar, tasviriy san'at asarlari va sumkalartayyorlanadi. |

Bugungi kunda quroq texnikasini qo'llanilish sohalari juda ham ko'p bo'lib, intery'er dizayni, ayolllar, erkaklar, bolalar kostyumlari dizaynida, oyoq kiyimlar va aksesuarlar dizaynida keng qo'llanilmoqda. Quroq texnikasini qo'llanilish sohalari bo'yicha tahlillar olib borildiva quyidagi diagramma tuzildi.




## 2.2Quroqtexnikasinitasviriysan'atasarlaribilanuyg'unlashtirishvauslublash

Quroq texnikasini noyob va bejirim ko'rinishda yaratish maqsadida uni tasviriy san'at asarlari bilan uyg'unlashtirish mumkin. Tasviriy san'at tushunchasi keng ma'noga ega.Tasviriy san'at deyilganda, grafika, rangtasvir, haykaltaroshlik san'ati tushuniladi. Me'morchilik va dekorativ-amaliy san'at asarlari ham qisman tasviriy san'atga kiradi. Haqiqatda esa ularda mavjud borliq tasvirlanmaydi.Lekin bu san'at asarlarida ijodkorning maqsadi, fikri, his-tuyg'ulari, orzu-istaklari o'z aksini topadi. Demak, ijodkorning dunyoqarashida ma'lum miqdorda davr ruhi vamazmuni

o'z aksini topadi. Shu nuqtayi nazardan qaraganda, me'morchilik va amaliy san'at buyumlari ham tasviriy san'at sifatida qaraladi[19].

Tasviriy san'atning hamma turlari bir-biriga juda yaqin va ularning bir qator o'xshashliklari bor. Lekin shu bilan birga, ulardan har birining o'ziga xos tasviriy uslublari va texnikasi mavjud. Bundan tashqari, ularning har biri ishlatilish o'rni, aks ettiradigan mavzusi, ishlanish uslubiga qarab bir qator tur va janrlarga bo'linadi. Tasviriy san’atni quroq texnikasi bilan uyg’unlashtirish uchun uning rangtasvir san’at turini tanlaymiz. Rangtasvir san'atiga devorlarga ishlangan turli rasmlar, polotnolarga chizilgan surat, kino va teatr dekoratsiyalari shu san'at turiga kiradi. Rangiasvirda rang muhim o'rinni egallaydi. Agar grafika san'atida rang shunchaki yordamchi vazifani o'tasa, rangtasvirni esa rangsiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Rassom rang orqali borliqni ko'rinarli obrazlarda tasvirlaydi, makonning cheksizligini, undagi narsalarning rang-barangligini, moddiyligini, hajmini ko'rsatadi. Rangtasvir asarlari yana o'zining vazifasi va ishlanish uslubiga ko'ra monumental, dastgoh va dekorativ turlarga bo'linadi. Monumental rangtasvir me'morlik bilan chambarchas bog'liq bo'lib, bu turdagi asarlar mustaqil mazmuniga ega hamda ularda jamiyat hayotidan olingan muhim voqealar aks ettiriladi.Bunday asarlar odatda uzoqdan ko'rishga mo'ljallanganligi tufayli obrazlarni iloji boricha umumlashtirilgan holda tasvirlashga, mayda detallardan iloji boricha kamroq foydalanishga-harakat qilinadi.Ranglar ham birmuncha shartli olinadi, shunga qaramasdan u borliq to'g'risida real tasavvur berishi kerak.Monumental rangtasvir me'morchilikda ma'lum miqdorda bezash vazifasini ham o'taydi, shuning uchun ham uni ba'zan monumental - dekorativ rangtasvir deb ham yuritiladi.Monumental rangtasvir asarlari bajarilish usuliga qarab o'z navbatida bir necha turlarga bo'linadi. Bular: freska, mozaika va pannodir. Freska odatda devorga to'g'ridan to'g'ri suvoq ustiga ishlanadi. Bolonka rangli tosh, shisha, bo'yalgan oyna, sirli sopol parchalaridan ishlanadi. Devorga ishlangan surat yoki o'yma naqshlar ba'zan har xil shakldagi ramkalar (to'rtburchak, kvadrat, beshburchak va hokazolar) bilan chegaralangan bo'ladi - bu pannodir. Panno dastlab alohida yuzada (xolstda, ganchda, yog'ochda)

ishlanib olinib bitgandan so'ng devorlarda qoldirilgan maxsus o'rinlarga o'rnatiladi.Lekin mazmun jihatdan mustaqil xarakterga ega bo'lishi ham mumkin. Ba'zi hollarda panno dastlab xolstga moy bo'yoq bilan ishlanib, keyin kerak bo'lgan o'ringa yopishtiriladi[20].

O'zbekistonning o'ziga xos zamonaviy rassomlaridan biri bo'lgan Toir Sharipov Samarqand shahrida yashab ijod qilmoqda.U tasviriy san'atning rangtasvir va grafika yo'nalishlarida milliy kashtachilik va quroq uslublaridan foydalanib noyob asarlar ishlaydi. Uning asarlarini kuzatar ekanmiz, rassomning qanchalik milliy obrazlarga, motivlarga, belgilarni tasvirlashga  bo'lgan intilishini his etamiz. Uning ijodiy manbasi – milliy o'zbek matolaridir. Matolarni asarlarida tasvirlash orqali u o'zining ichki olamini ornament va mato bo'laklari orqali tasvirlaydi, insonlar esa uning asarlarini kuzata turib, asarlardagi ritm va ohanglarni his etadilar. (II-bob.1-2-rasm)



**II-bob. 1-rasm. Toir Sharipovning ''Samarqand'' deb nomlangan san'at asari. Ushbu san'at asarida rassom Samarqand shahrining go'zal manzarasini quroq texnikasi yordamida tasvirlashga harakat qilgan. Asardagi ranglar uyg'unligi Samarqandning obida-yu minoralaridan olingan, yarim gumbaz  shakllar ham Samarqand ko'rinishini ochib berishga urg'u beradi.**



**II-bob.2-rasm. Toir Sharipovning quroq texnikasidagi "Adras raqsi" deb nomlangan asari. Ushbu san'at namunasini kuzata turib adrasning jilvasiga tan bermay ilojimiz yo'q.**

Quroq texnikasining takrorlanmas va bejirim fragmentlarini akril moy bo'yoqlari va pastoza texnikasi yordamida ishlangan tasviriy san'at asari namunalaridan ham olishimiz mumkin. Rossiyalik rassom Yelena Glushkovaning "Lolalar" asari moy bo'yoqlarida ishlangan bo'lib, unda lolalar sariq ranglarda "Pastozo" texnikasida ishlangan. Pastozo texnikasi – bu qalin yozuv kisti yordamida, qalin va zich boyoq chizgilar orqali tasviriy san'at asarlari yaratish texnikasidir[53](II-bob. 3-rasm).



**II-bob.3-rasm.Yelena Glushkova "Lolalar"**

Yana bir Rossiyalik rassom Valeriy Ribakov ham ushbu texnikada “Rangin gullar” asarini yaratdi (Ilova. 1-rasm). Ivan Ageyevning “Egzotik gullar” asari ham quroq texnikasi uchun ajoyib fragment bo’la oladi (Ilova. 2-rasm). Yavorivskiy Aleksandr nomli rassom tomonidan ishlangan “Alvon lolalar” asarining ko’rinishi ham quroq texnikasini yaratish uchun ijodiy manbaa bo’la oladi(Ilova. 3-rasm). Amekialik rassom Djastin Deffi akril yo’nalishida asarlar yaratadi. Uning asarlarida asosan tabiat manzarasi, quyoshning chiqishi va botishi kabi ko’rinishlar o’z aksini topadi (Ilova. 4-5-rasm). Ushbu san’at asarlarida quroq texnikasini bo’laklarini yaqqol ko’rishimiz mumkin [54].Chunki tanlangan san’at asarlari na’munalari akril va pastoza texnikalarida ishlangan. Bu texnikalarning moy bo’yoqlarni bo’lak-bo’lak qilib qo’yish kabi o’ziga xos xususiyatlari quroq texnikasi bilan o’xshashdir.

## 2.3 Zamonaviy moda tendensiyalarida – quroq texnikasining o’rnini tahlil qilish

Bugungi kunda moda olamida quroq texnikasining turli usullaridan keng foydalanilmoqda va yanada yangidan yangi turlari amaliyotga tadbiq qilinmoqda. Dunyoning ko’plab dizaynerlari bu texnika asosida bejirim kolleksiyalarni yaratmoqdalar. Masalan, o’tgan mavsumda yani kuz-qish 2013-2014da Fendi brendining dizayneri Karl Lagerfeld ajoyib va chiroyli bo’lgan modellarni yaratdi. U turli hil rang va uzunlikdagi mo’ynalardan foydalandi (II-bob. 6-rasm).Shuningdek, Sergey Grinko, Jean Paul Gaultier, Valentin Yudashkin kabi taniqli dizaynerlar ham o’z ishlarida quroq  texnikasidan foydalangan holda ko’rkam liboslar to’plamlarini yaratishdi[55] (II-bob. 7-rasm ).



**II-bob.6-rasm. Quroq texnikasida mo'ynali ustki kiyimlar kolleksiyalari kuz-qish 2013-2014 Fendi, Sergey Grinko, Jean Paul Gaultier, Valentin Yudashkin**



**II-bob.7-rasm. Kuz-qish 2013-2014 quroq texnikasidagi charm va mo'ynali kolleksiyalar.**

Pradaning 2015 yilgi kolleksiyasida ham quroq texnikasidan foydalanib turli matolar va naqshli bo'laklardan iborat ko'ylaklar va ustki kiyimlar yaratildi [21] (II-bob.8-rasm).



**II-bob.8-rasm. Prada brendining 2015-yildagi quroq texnikasidan foydalanilgan kolleksiyasi**

Kuz va qish 2015-2016 mavsumida dunyo dizaynerlari turli-tuman uslublar va yo'nalishlarning aralashmasini tavsiya etmoqdalar. Ba'zi talabgor tendensiyalar muhokamali ko'rinsa boshqalari garderobni umuman o'zgartirishga chorlaydi. Masalan, PRADA dizaynerlarining kuz-qish 2015-2016 mavsumidagi kolleksiyalarida 60-yillarning elementlarini yorqin ranglar, bezaklar va bantlar bilan uyg'unlashtirishdi(II-bob. 9-rasm).



**II-bob.9-rasm.Prada kuz-qish 2015-2016.**

Max Mara brendi Milandagi moda haftaligida kuz-qish 2015-2016 mavsumiga mos kolleksiyani namoish etdi. Kolleksiya, asosan ayollar xalat-paltolaridan iborat bo'lib, ularning ranglari kuzgi qaymoq ranglarda, yengil leopard

printlari va dengiz to'lqinlarini aks ettiruvchi mo'ynali dekorlar bilan bezatilgan[56] (II-bob.10-rasm).



**II-bob.10-rasm.Max Mara kuz-qish 2015-2016.**

Moda olamida quroq texnikasining turli usullaridan keng foydalanilmoqda va yanada yangidan yangi turlari amaliyotga tadbiq qilinmoqda. Dunyoning ko'plab dizaynerlari bu texnika asosida bejirim kolleksiyalarni yaratmoqdalar. 2016 yilning qishki va yozgi moda tendensiyalari fantaziyalardan cheklanmagan holda quroq texnikasining bo'laklarini ustki kiyimlarda ham ko'ylaklarda ham shimlarda ham va hatto toplarda ham qollashdi (II-bob. 11-rasm).



**II-bob.11-rasm. 2016 yilning qishki va yozgi moda tendensiyalari.**

Moschino brendining dizaynerlari quroq texnikasini oddiygina to’rtburchaklar usulini juda ham bejirim ko’rinishda liboslarda qo’lladilar. Ular jinsi va tilla rangdagi matolardan foydalanishdi [57] (II-bob. 12-rasm).




**II-bob.12-rasm.Moschino.**

O’zbek moda olamida ham taniqli va yosh dizaynerlar tomonidan quroq texnikasidan foydalanib bejirim liboslar kolleksiyalari yaratilmoqda. Masalan,mashhur o’zbek dizaynerlaridan biri bo’lgan Saodat Muratxadjaeva o’z ishlarida quroq texnikasidan keng foydalanadi. U quroq texnikasining kresh usulida, milliy matolar uyg’unligida ayollar, erkaklar va bolalar liboslarini yaratgan [58](II-bob 13-rasm).



**II-bob.13-rasm. Saodat Muratxadjaevaning 2009-yildagi liboslar to’plami.**

Yana bir taniqli o’zbek brendi hisoblangan KANISHKAning kolleksiyalarida ham quroq texnikasidan keng foydalaniladi. U turli tuman jun va charm matolardan foydalanib quroq texnikasida yangi fakturalarni hosil qilgan holda ustki kiyimlar va boshqa turdagi liboslarni yaratadi [59](II-bob. 14-rasm).




**II-bob.14-rasm.Kanishka brendining 2016-yildagi liboslari.**

Yosh dizaynerlardan biri bo’lgan Rasulova Ruhsora ham 2015-yilda Milliy Libos festifalida plashofka vs xon atlas matolarini qo’llagan xolda yosh ayollar liboslari kolleksiyasini yaratdi(II-bob. 15-rasm).



**II-bob.15-rasm.Rasulova Ruhsoraning liboslar to’plami.**

Iqtidorli yosh dizayner Azimova Gulshanoy ham 2015-yil Bolajonlar-Shirintoylar festivalida quroq texnikasida tikilgan bolalar liboslari to’plamini

yaratdi. Kolleksiyani yaratishda u fosfor ranglarning jilosini to’g’ri to’rtburchak shakldagi quroq texnikasida ko’rsatdi. Shuningdek, milliy bichim va matolardan ham foydalandi(II-bob.16-rasm).



**II-bob.16-rasm. Azimova Gulshan Bolajonlar Shirintoylar**

## 2.4Quroq texnikasidan foydalanib ayyollar liboslarini loyihalash

Go’zal ijtimoiy yo’naltirilgan buyumlar yangi turmush tarzini o’rgatishga imkon beradi, insonning ruhiy talablarini qondiradi, moddiy vositalarni tejamlash rezerviga aylanib, mahsulotni mukammallik darajasini oshiradi.

Amaliy hunarmandchilikning o’ziga xos bir yo’nalishlaridan biri bo’lgan quroq texnikasi - tarixda matolar tanqisligidan kelib chiqgan bo’lsa-da, yillar mobaynida rivojlanib bordi.Bugungi kunda quroq texnikasining juda ham ko’plab turlarini uchratishimiz mumkin. Ular malakali dizaynerlar va ko’ngilli quroq tikuvchilar tomonidan yaratilmoqda.Zamonaviy moda olamida ham quroq texnikasi aktual mavzulardan biridir. Aynan quroq texnikasida har qanday mato turlari va qoldiqlarini ishlatgan holda bejirim yahlit mato yaratish mumkin. Bu esa qoldiq matolarning chiqitga chiqishi kabi muammolarni hal qiladi va bu kiyim ishlab chiqaruvchilar uchun arzonga tushadi[22].

Kuzgi va qishki mashhur berdlar MOSKINO, PRADA, FENDI dizaynerlari aynan quroq texnikasidan foydalanilganligi o’rganildi va quroq texnikasini yaqqol

namoyon qilish maqsadida uni ustki kiyimlarda qo'llanildi. Ustki kiyimlar zamonaviy moda yo'nalishi asosida MAX MARA, VERCHACE, GUCCI kabi brendlarning bichimlaridan ilhomlangan holda to'g'ri to'rtburchak, trapetsiya shakllarida bo'ldi. Ijodiy manbani izlanish jarayonida quroq texnikasiga o'xshash akril va masla bo'yoqlarida ishlangan tasviriy san'at asarlaridan, zamonaviy moda tendensiyalaridagi yorqin ranglar koloritidan va siluetlaridan foydadalanildi. Quroq texnikasini tikishda adras matolaridan foydalanildi chunki, ulardagi rang barang naqshlar tasviriy san'at asarlari bilan uyg'unlashib ajoyib uy'unlikdagi quroq uslubini yaratdi. Quroq texnikasining ornamentlari uchburchak, to'rtburchak, shakllarda va turli o'simliklar va gullar shakllarida applikatsiya texnikasida tikildi. Bo'lakchlar bir-biriga mashinaning zig-zag choklari yordamida ulab chiqildi. Natijada, juda ham ajoyib va bejirim fakturaga ega bo'lgan quroq texnikasining na'munalari paydo bo'ldi va ustki kiyim plashlarning har hil qismlarida qo'llanildi.Quroq texnikasini tasviriy san'at asarlari bilan uyg'unlashtirishda o'zbek milliy matolari bo'lgan adras matolaridan foydalanish maqsadga muvofiq bo'ladi. Chunki milliy matolardagi rang-baranglik quroq texnikasini tasviriy san'at asarlari bilan uyg'unlashtirilganda ularda bejirim ranglar gammasini yaratadi [23].

Asos sifatida ustki kiyimlar uchun plashbop matodan foydalanamiz. Plashbop matolarining yuqori qismidagi zichligi turlicha bo'lib, u 50-300 g/m2 ni tashkil etadi.Plashbop materiallarining namgarchilikka chidamlilik xususiyatini yanada kuchaytirish maqsadida, unga maxsus ishlov beriladi.

Plashlarni tayyorlashda ishlatiladigan matolar, asosan uch turga bo'linadi: suv yuqmaydigan gidrofob singdirilgan polimerli qoplama va rezinli qoplama. Plashbop matolar xomashyo tarkibiga ko'ra, ip-gazlamali, ipakli va yarimjunli bo'lishi ham mumkin. Kurtkalar esa yomg'irpo'shga ishlatiladigan bo'lib maxsus materiallardan tayyorlanadi. Odatda ular yengil zichlikdagi poliamid tolalardan iborat bo'lib, sadaf rangli, kumush va tilla rangdagi plyonka, shuningdek, lateks

bilan qoplangan, lak bezakli bo'ladi, shamolga bardosh beruvchi, suv o'tkazmaydigan matolar ham shular jumlasidandir [24].

Nam o'tkazmaydigan plash, palto va bosh kiyimlar kompleks va plyonkali materiallardan tayyorlanishi ham mumkin. Bunga tabiiy yo sun'iy charm va zamshni  misol keltirish mumkin.

Kompleks kapron iplardan bo'lgan matolar yuqori issiqlik o'tkazuvchanlik, past havo va bug' o'tkazuvchanlikka egaligi sababli, uni yilning issiq kunidagi yomg'irlardan himoya qiladigan yomg'irpo'shlar uchun qo'llash maqsadga muvofiq bo'ladi. Issiqdan himoyalovchi kundalik va sport liboslar uchun bu kabi matolardan yuza qatlami sifatida qo'llaniladi.

Plash uchun astarli materiallar — kostyum va paltolarning astarlariga aynan o'xshash bo'ladi [25].

## 2.5 Quroq texnikasining tikilish ketma-ketligi

Quroq texnikasini tikish jarayoni bir necha bosqichlarni o'z ichiga oladi.Ayollar uski kiyimlariga mos mato tanlanganidan so'ng, u bichib olinadi. Quroq texnikasi tikiladigan bichim bo'laklariga shaklni yahshi ushlashi vaburmalar hosil bo'lmasligi uchun dublerin yopishtiriladi.




**II-bob 17-rasm.Ustki kiyim detallari bichiladi II-bob. 18-rasm.Quroq texnikasini**

**tikilishjoylariga dublerin yopishtiriladi**



**II-bob. 19-rasm.Tasviriy san’at asari bo’laklariga qarab kiyim detallarining kerakli joylariga maxsus bo’r yordamida gullar chizib olinadi**



**II-bob.20-rasm.Maxsusikkiyoqlamakleylilentanikichkina- kichkinabo’laklargabo’libolamiz, naqshlarustigaqo’yibchiqamiz.**



**II-bob 21-rasm.Adrasmatolaribo’laklaridantasviriysan’atasarigayaqinranglarnitanlabolamiz, ulardangullarbo’laklarinikesibolamizvanaqshchizilhanbo’laklarustigateribchiqamiz.**



**II-bob.22-rasm.Mato bo’laklari terib chiqilganidan so’ng dazmol yordamida ustidan bostiriladi.**




**II-bob.23-rasm.Gullar yopishtirilganidan keyin tikuv mashinsining zig-zag choki yodamida 0,5sm kenglikda chetlari tikib chiqiladi.**

## II-bob bo’yicha xulosa

Quroq texnikasinini tizimlashtirish orqali uning hududlar bo'yicha, tikish texnikalari bo'yicha guruh va yo'nalishlarga ajralildi. Bu esa ushbu texnikadan foydalanuvchilar uchun qulaylikni va ma'lumorlar olish imkonini yaratadi. Quroq texnikasining qo'llanilish sohalari bo'yicha olib borilgan izlanishlar esa quroq texnikasining bugungi kundalik hayotimizdagi o'rni va ahamiyati qanchalik darajada ekaninini ko'rsatadi.

Quroq texnikasini yangi turini yaratish maqasadida, iqtidorli o'zbek va Yevropa rassomlari tomonidan yaratilgan turli xildagi san'at asarlari o'rganib chiqildi va tahlil qilindi.

Zamonaviy moda olamida quroq texnikasining bugungi kundagi o'rni juda ham ahamiyatlidir. Dunyo dizaynerlari va o'zbek dizaynerlarining ko'pchiligi ushbu texnikani qo'llagan holda yildan-yilga noyob va bejirim liboslarni yaratmoqdalar.

Liboslarni loyihalashda tasviriy san'at asarlaridan quroq texnikasi uchun fragmentlar tanlandi. 2015-2016 kuz-qish mavsumidagi MAX MARA, VERCHCE, GUCCI kabi mashhur brendlar tomonidan yaratilgan ayollar ustki kiyimlari kolleksiyalari siluetlari va bichimlaridan ilhomlangan holda to'plam uchun ranglar koloriti, shakl va bichimlar tanlandi.

Taklif etilgan, tasviriy san'at asarlari bilan uyg'unlashtirilgan quroq texnikasining tikilish ketma-ketligi ish jarayonidan olingan suratlar orqali yoritib berildi.

## III–bob. Loyiha qisimi

## 3.1Kolleksiya konsepsiyasini ishlab chiqish

Amaliy hunarmandchilik turlaridan biri bo'lgan quroq texnikasi o'zining bejirim va rangin ko'rinishi bilan boshqa amaliy hunarmandchilik turlaridan ajralib turadi. Ushbu texnika juda qadimdan ma'lum bo'lib, bugungi kungacha uning turli-tuman ko'rinishlari hunarmandlar va uy bekalari tomonidan yaratilib kelindi. Ushbu texnikaning noyobligi nafaqat bejirim ko'rinishga ega ekanligida, balki uni turli qoldiq mayda matolardan foydalangan holda yaratish mumkinligida. Qadimda quroq texnikasidan uy ro'zg'or buyumlarini yaratishda foydalanilgan bo'lsa, hozirda ushbu texnika eng aktual mavzuga va hatto san'at darajasiga ko'tarildi.

Quroq texnikasini zamonaviy liboslarda qo'llagan holda bejirim san'at asarini yaratish uchun uni tasviriy san'at asarlari bilan bog'laymiz. Tasviriy san'at mavjud borliq tasvirlanmaydi. Lekin bu san'at asarlarida ijodkorning maqsadi, fikri, his-tuyg'ulari, orzu-istaklari o'z aksini topadi. Demak, ijodkorning dunyoqarashida ma'lum miqdorda davr ruhi va mazmuni o'z aksini topadi. Quroq texnikasi ijodkori ko'zi bilan tasviriy san'at asarlariga nazar solinsa uni turli mayda mato bo'laklarida ko'rish mumkin.Tasviriy san'at asaridagi rang-barangliklarni va soya yorug' qismlarni milliy matolarimizdan biri sanalgan adras matosi bo'laklarida ko'rishimiz mumkin (Ilova. 6-rasm).

## 3.2Ayollar ustki kiyimlari(plash) haqida ma'lumotlar

Ayollar ustki kiyimlari(plash)lar bu – suv o'tkazmaydigan, yengil turdagi mahsulot sanalib, u asosan shamol va yomg'irli havo uchun mo'ljallangan. Ular issiqlik o'tkazmaydigan kiyimlar turiga mansubdir. Palto va kostyumlarga o'xshash tarzda, yomg'irpo'shlar ham odamni zarur izolyatsiya bilan ta'minlaydi, uni sovuq qotishidan himoya qiladi. Shuning uchun undagi konfeksiyalash tamoyillari palto va kostyumlardagi kabidir [26].

Plashlarning himoyalash funktsiyalari, haroratga qarshi tura olishi, suv o’tkazmaslik va material qoplamasining past darajada havo o’tkazuvchanligi alohida ahamiyatga ega.

Plash va uning matolariga bo’lgan talab va materiallar tanlovi, uning ishlatilish sharoitidan kelib chiqqan holda belgilanadi. Bu mahsulotlar faqatgina yog’ingarchilikdan himoya qilish uchun mo’ljallangan bo’lmay, balki yengil palto sifatida ham foydalaniladi. Namgarchilikka qarshi turishi bilan bir qatorda, issiqlikni ushlab turuvchi ma’lum bir xususiyatlarga, shuningdek, o’zining estetik ko’rsatkichlari bilan ham zamonaviy modalar yo’nalishiga mos bo’lishi kerak [27].

### Loyxalanadigan kiyimga qo’yladigan talablar

